

# **TARBIYACHI PEDAGOGLARNING PSIXOLOGIK- PEDAGOGIK KOMPETETNTLIGINI SHAKILLANTIRISH**

**S.T.Xabilova**

*Termiz davlat Pedagogika Instituti Maktabgacha ta`lim fakulteti Maktabgacha ta`lim  
nazaryasi o`qituvchisi*

**Annotatsiya** Ta`limda kompetentlik bilan yondashuv turli ko'nikmalarni egallash, keljakda ijtimoiy, kasbiy va shaxsiy hayotlarida samarali harakat qilishga yo'naltiradi. Tarbiyachining vazifasi mustaqil qaror qabul qilish, masala yechimining yangicha usullarini topish, olingan natijaga mustaqil baho berish kabi vaziyatlarda samaraga erishish qobiliyatini rivojlantirish.

**Kalit so`zlar.** Ta`lim, markaz bilim, tafakkur, qurish, reja, aqliy tarbiya, ko'nikma, malaka, tarbiya, bilish, qobiliyat, muhit, ijtimoiy, rahbar, metod, yasash, irsiyat

## **ФОРМИРОВАНИЕ ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ ПЕДАГОГА**

**Аннотация.** Грамотный подход к образованию приводит к приобретению различных навыков, эффективных действий в дальнейшей социальной, профессиональной и личной жизни. Задача воспитателя - развивать умение принимать самостоятельные решения, находить новые пути решения задач, самостоятельно оценивать результаты.

**Ключевые слова.** Образование, знание, мышление, план, интеллектуальное образование, умение, компетентность, обучение, знание, способность, окружающая среда, социальное, лидер, метод, наследственность

## **FORMATION OF PSYCHOLOGICAL-PEDAGOGICAL COMPETENCE OF EDUCATORS**

**Annotation.** A competent approach to education leads to the acquisition of various skills, effective action in the future social, professional and personal life. The task of the teacher is to develop the ability to make independent decisions, to find new ways of solving problems, to independently evaluate the obtained results.

**Key words.** Education, knowledge, thinking, plan, intellectual education, skill, competence, training, knowledge, ability, environment, social, leader, method, heredity

Pedagog tarbiyachi shaxsiga qo'yiladigan muhim talablaridan biri shuki, u o'z predmetini, uning metodikasini chuqur o'zlashtirgan bo'lishi zarur. Bu pedagog-tarbiyachining obro'sini ko'taradi. Tarbiyachi kasbiga xos bo'lgan muhim fazilatlaridan, talablaridan biri bolalarni sevish ularning hayoti bilan qiziqish har bir shaxsni hurmat qilishdan iborat.

Tarbiyachilarning asosiy uslubiy yondashuvlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

-yosh tarbiyachining psixologik-pedagogik kompetensiyasini ajralmas va murakkab tashkil etilgan jarayon sifatida shakllantirishni ochib beradigan tizimli yondashuv;

- yosh tarbiyachining psixologik va pedagogik kompetensiyasini uning kasbiy kompetensiyasining bir qismi sifatida ko'rib chiqishga imkon beradigan kompetensiyaga asoslangan yondashuv;

- yosh tarbiyachining psixologik-pedagogik kompetensiyasini shakllantirish jarayonini, uning shaxsiy pozitsiyasini, ma'nolarini, motivlarini yosh tarbiyachi tomonidan faoliyat mazmuni va usullarini tanlash orqali hisobga olgan holda ko'rib chiqishga yordam beradigan shaxsiy-faoliyat yondashuvi;

Pedagoglarning psixologik-pedagogik kompetensiyasini shakllantirishda tizimni tashkil etuvchi omil bu kasbiy faoliyatga ijobiy hissiy va qadriyat munosabatini amalga oshirishdir. Tarbiyachi kerakli bilim, ko'nikma malakalarini ma'lum bir izchillik bilan egallab borsagina o'z shaxsini shakllantiradi hamda bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berishda yaxshi natijalarga erishadi.

Hozirgi zamonaviy tarbiyachi bolalarga bilim , malaka, ko'nikmalarini yaxshi o'zlashtirib olishlari uchun ularni faollashtirishni kuchaytiradigan savollardan foydalansalar samarali natijalarga erishadilar.Tarbiyachi o'ziga yuklangan vazifani bajarishi uchun bolalarda o'sha faoliyatga nisbatan qiziqish uyg'ota olish, ularning

diqqatini jalb qilib, faolligini o'stirish, bolalarning hulqini hatti harakatlarini haqqoniy baholay olishi malakalariga ega bo'lishi hamda har bir faoliyat uchun

kerakli materiallarni oldindan tayyorlab qo'yishini rejalashtira olishi zarur. Maktabgacha ta'lim tashkilotining tarbiyalanuvchilarga bog'liq bo'lgan kun tartibini to'g'ri tashkil eta bilishi, bolalar jamosiga undagi har bir a'zoni e'tiborga olgan holda raxbarlik qila olish qobilyatlari rivojlangan bo'lishi lozim.

Tarbiyachilarning psixologik kompetensiyasi rivojlanganligi alohida ahamiyat kasb etadi. Bollarning ruhiy va jismoniy holatini aniqlay bilishi va buni bolalar bilan birga amalga oshiriladigan ta'lim -tarbiyaviy ishlarda e'tiborga ola bilishi tarbiyachi shahsining psixologiya fanlarini chuqur o'rganganligidan dalolat beradi. Tarbiyachi ota-onalar bilan muntazam ravishda suhbatlar, uchrashuvlar o'tkazib axborot almashtirib turishi hamda pedagog bollarga nisbatan xayrihohlik munosabatda bo'lishi, har bir bola uchun qulay sharoit yaratishi, hafa bo'sa ovuntira olishi kabi hislatlarni o'zida bor yoki yo'q kabi holatlarga e'tibor qaratishi zarur. Maktabgacha ta'lim tashkiloti yosh pedagoglari yuqorida keltirilgan fikrlarga tayangan holda ish jarayonlarini tashkil etsalar o'z kasblarining yetuk mutaxassislari bo'lib yetishadilar.

Chunki, biz o'z oldimizga farzandlarimizning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadini qo'ygan ekanmiz, shubhasiz, pedagog-tarbiyachilarning malakasini oshirish borasidagi mavjud tajribalarni zamonaviy talablar darajasida takomilashtirishimiz zarur.

### **Adabiyotlar ro`yxati**

1. S.Xabilova. Tarbiyachi – Yuksak ko'ngil sohibasi Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini tashkil etishning dolzarb vazifalari: muammo va yechimlar Respublika ilmiy-onlayn konferentsiyasi MATERIALLAR TO'PLAMI 22. 12. 2020 y

2. Tursunmurodovna X. S. Yosh pedagoglarning psixologik-pedagogik faoliyatidagi kompitentlik masalalariga oid ayrim mulohazalar //Research and education. – 2022. – т. 1. – №. 1. – с. 324-328.

3. X Nuritdinova MAKTABGACHA TAYYORLOV YOSHDAGI BOLALARNI MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK VA

4. Hikmatullaevna, M. K. (2022). DEVELOPMENT OF STUDENTS' CREATIVITY AS A PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL PROBLEM. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(10), 571-574.
5. Kuvvatova, M. (2022). DEVELOPMENT OF STUDENTS' CREATIVITY AS A PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL PROBLEM. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(10), 665-670.
6. Quvvatova, M. H., & Ibrohimova, K. A. (2021). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA EKOLOGIK TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISH VOSITALARI. *Студенческий вестник*, (16-7), 71-73.
7. Quvvatova, M. (2022). PEDAGOGIK TA'LIMNING BO'LAJAK BAKALAVRLAR KREATIVLIGINI RIVOJLANTIRISH KONTEKSTIDA TAYYORLASHDAGI KASBIY XUSUSIYATLAR. *Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya: Nazariy va amaliy izlanishlar*, 1(27), 29-31.
8. Quvvatova, M. (2022). LEARNING TO DEVELOP THE CREATIVITY OF HIGHER EDUCATION STUDENTS. *Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot*, 1(28), 131-134.
9. Quvvatova, M. (2022). OLIY TA'LIM TALABALARINING KREATIVLIGINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI. *Академические исследования в современной науке*, 1(19), 236-239.
10. Quvvatova, M. (2022). WAYS OF DEVELOPING CREATIVE ABILITIES OF STUDENTS OF HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS. *Models and methods in modern science*, 1(18), 4-7.
11. Quvvatova, M. H., & Alisherova, S. (2022). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARING NUTQINI O'STIRISHDA LUG 'AT ISHINING AHAMIYATI. *Eurasian Journal of Academic Research*, 2(3), 472-474.

12.X Nuritdinova **MULOQOT MUAMMOLARIDA KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIKNING MAZMUN TAVSIFI** Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyat 1 (28), 135-137

13.X Nuritdinova **SHAXSNING KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHNING AMALIY VAZIFALARI** Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya: Nazariy va amaliy izlanishlar 1 Том Номер 27 32-33 Страницы

14. XN Nuritdinova **KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIKNING MOHIYATI VA UNING MUTAXASSISNI KASBIY SHAKLLANISHIDAGI O'RNI** Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences 1 (7), 158-160

15. X Nuritdinova **MAKTABGACHA TAYYORLOV YOSHDAGI BOLALARINI MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK ASOSLARI** Eurasian Journal of Academic Research 2 (3), 448-451

16. **METHODOLOGY OF LEARNING THE SPEECH OF STUDENTS WITH SPECIAL NEEDS IN THE CONDITIONS OF INCLUSIVE EDUCATION**

MA Buriboyevna Web of Scientist: International Scientific Research Journal 3 (12), 147-151

17. **Conditions For Planning The Educational Process In A Preschool Institution With Compensatory Groups** AM Buriboyevna Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences 1 ...

18. **Recommendations for Improving the Quality of Preschool Education through an Assessment System** AM Buriboyevna Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences 1 ...